

**HUQUQIY HUJJATLARDA ELEKTRON RAQAMLI IMZO
O'ZBEKISTONNING "ELEKTRON RAQAMLI IMZO TO'G'RISIDA" GI
QONUNI TAHLILI ESTONIYA TAJRIBASI**

Mirzamatova Diloobar Jo'rabek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Ctele8005@gmail.com

***Annotatsiya.** XXI asr Axborot va texnologiyalar davrida raqamli axborot tizimi kun sayin rivojlanib bormoqda. Raqamli axborot tizimi, texnologiyalar ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohasiga, hususan, huquq sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, bir qancha imkoniyatlar eshigini ochdi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi, bugungi kunda kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan elektron raqamli imzo, uni O'zbekiston qonunchiligida mustahkamlanishi, va Estoniya tajribasi haqida batafsil ma'lumot berishdir.*

***Kalit so'zlar:** elektron raqamli imzo, ochiq kalit, maxfiy kalit, elektron raqamli imzo sertifikat, elektron hujjatlar, elektron shartnomalar.*

KIRISH

Elektron huquqiy hujjatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish, rivojlangan davlatlarda o'z samarasini berdi. Va bu qonun bilan mustahkamlanib qonunchilik tizimiga kiritildi. Elektron raqamli imzodan eng keng foydalanadigan davlat bu – Estoniyadir. Elektron raqamli imzodan foydalanishga doir munosabatlar Estoniyaning Digital Signatures Act qonuni asosida tartibga solinadi.

O'zbekistonda "Legal tech" tizimi rivojlanishi natijasida huquqiy hujjatlar; shartnomalar, qonunlar, normativ- huquqiy hujjatlar, sud hujjatlari va bir qancha hujjatlar elektron tizimga o'tdi. Elektron raqamli imzo ana shunday huquqiy hujjatlarda foydalanilib, ularning xavfsizligini uzoq muddat saqlanib qolishini ta'minlaydi hamda qonun bilan tartibga soladi.

Elektron raqamli imzoga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining “ Elektron raqamli imzo to'g'risida” gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Huquqiy hujjatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish.

Elektron raqamli imzo – elektron shakldagi hujjatlarni tegishli shaxs yoki tashkilot tomonidan imzolanganligini tasdiqlaydi. Elektron raqamli imzo <https://my.gov.uz/> (my.gov.uz) hamda <https://my.soliq.uz/main/> (elektron soliq xizmatlari) saytlari orqali bir necha boshqichlar asosida olinadi. Elektron raqamli imzoda ikkita ; birinchisi ochiq (ommaviy), ikkinchisi yopiq (maxfiy) kalitlar mavjud bo'ladi. Ochiq (ommaviy) kalit – kim tomonidan imzolanganini hamma ko'rishi uchun belgilanadi.

Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti — elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiq bo'lgan, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi uchun ochiq bo'lgan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Yopiq (maxfiy) kalit esa faqatgina imzolagan shaxsga tegishli bo'lib, tegishli ma'lumotlari o'zigagina ko'rinadi .

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti — elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron raqamli imzoning sertifikat- ochiq kalit yopiq kalitga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat.

Elektron raqamli imzodan bank, soliq, tadbirkorlik va bir qancha sohalarda keng foydalaniladi. Ushbu imzodan foydalanish natijasida qog'ozning sarfi

kamayadi, istalgan vaqtda, har qanday joyda bemalol foydalanib bo'ladi, undan tashqari tegishli hujjatning xavfsizligi yuqori darajada saqlanadi.

O'zbekistonning "Elektron raqamli imzo to'g'risida" gi qonuni tahlili.

O'zbekistonda "Elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonun ikki marta qabul qilingan bo'lib, birinchisi 2003-yil 11- dekabrda qabul qilingan va 2023-yilning 14- yanvarida kuchini yo'qotgan. Amaldagi qonun 2022-yil 12- oktabrda qabul qilinib, 3 oydan keyin kuchga kirgan. Qonun 6 bob 34 ta moddadan tashkil topgan. Ushbu qonun asosida elektron raqamli imzoga oid bo'lgan huquqiy munosabatlar tartibga solinadi. Ushbu qonun elektron raqamli imzo, qog'ozda qo'yilgan imzo bilan bir xil kuchga ekanligini tasdiqlaydi. Elektron raqamli imzodan foydalanishga doir bo'lgan yagona davlat siyosati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi va foydalanishga oid davlat dasturlarini tasdiqlaydi. Elektron raqamli imzoga oid bo'lgan standartlarni, qoida va normalarni qabul qilish Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, elektron raqamli imzodan foydalanishga doir bir qancha talablar mavjud bo'lib, davlat organlarida faoliyat yuritayotganda milliy standartlarga asoslangan holatda berilgan elektron raqamli imzodan foydalaniladi, davlat xizmatlari yuzasidan milliy va xalqaro standartlarga asoslangan elektron imzodan foydalanish mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yopiq, ochiq kalitlar akkredatsiyadan o'tgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshiradigan yuridik shaxs tomonidan ro'yxatga olinadi va xavfsizligi ta'minlanadi, va o'z vakolati doirasida elektron raqamli imzolar sertifikatlarining reyesterini ya'ni Yagona davlat reyesterini yuritadi,

jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishini ta'minlaydi. Ushbu sertifikatni olish tartibi qonunda quyidagicha beriladi:

Jismoniy shaxslardan — shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatish, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini hamda elektron raqamli imzoning kalitidan foydalanish maqsadi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish orqali;

Yuridik shaxslardan — soliq to'lovchi yuridik shaxsning identifikatsiya raqami to'g'risidagi ma'lumotlarni, yuridik shaxsning elektron raqamli imzosi kalitining sertifikatini oluvchi xodim ko'rsatilgan ishonchnomani, ishonchnomada ko'rsatilgan xodimning shaxsini hamda elektron raqamli imzoning kalitidan foydalanish maqsadlarini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish talab qilinadi.

Tarqatilishi cheklangan axborotni o'z ichiga olgan elektron hujjatlar uchun elektron raqamli imzoning yopiq kalitini berish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini ro'yxatga olish uchun qo'shimcha axborot talab qilinishi mumkin.

Ro'yxatga olish markazining jismoniy va yuridik shaxslardan elektron raqamli imzo kalitlarining sertifikatlarini berish maqsadlariga muvofiq bo'lmagan ma'lumotlarni so'rab olishi taqiqlanadi. Ushbu sertifikatdan qonunda belgilan tartibda foydalaniladi, foydalanish tartiblari buzilganda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

ESTONIYA TAJRIBASI

Estoniya bugungi kunda elektron hukumat orqali dunyodagi rivojlangan davlatlarning yuqori pog'onasida turadi. Shuningdek, elektron imzo ham keng tarqalgan bo'lib, birinchi elektron imzo 2002- yilda berilgan.

2014 yil oktyabr oyida Estoniya parlamenti har qanday shaxsga, fuqaroligi yoki yashash joyidan qat'i nazar, raqamli imzolarni berish va Estoniya hukumatining onlayn xizmatlaridan foydalanish uchun Estoniya raqamli

identifikatsiyasiga (Estoniyaning elektron rezidentligi) murojaat qilish imkoniyatini beradigan qonun loyihasini qabul qildi.

Estoniyada raqamli imzoning tabiati va undan foydalanish Raqamli imzo to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Estoniya parlamenti Riigikogu 2000-yil 8-martda Raqamli imzo to'g'risidagi qonunni qabul qildi va u 2000-yil 15-dekabrda kuchga kirdi. Ushbu qonunchilikka ko'ra, elektron raqamli imzo qo'lyozma imzoga tenglashtiriladi. Ushbu qonunga muvofiq, haqiqiy va bekor raqamli imzolarni ajratish ham kerak, bekor yoki to'xtatib qo'yilgan sertifikat bilan berilgan har qanday imzolar bekor va bekor hisoblanadi.

Elektron imzodan bugungi kunda 99 % aholi bimalol foydalana oladi.

Estoniyaning raqamli imzo tizimi kompaniyalarning ro'yxatdan o'tkazish, onlayn shartnomalar tuzish, elektron ovoz berish, soliq va har qanday xizmatlarga asos bo'lib xizmat qila oladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va fikrlarga asosanib ko'rishimiz mumkinki Estoniyada aholining 99% qismi elektron imzodan foydalana oladi. Estoniyada deyarli barcha hujjat bilan bog'liq ishlar elektron bo'lgani sababli ham aholi foydalana oladi.

O'zbekistondachi?

Ushbu masalada men yaqinlarim, do'stlarim va ko'pchilik odamlarning fikrlarini bilib ko'rdim. Deyarli 80% odam elektron raqamli imzo haqida hattoki, ma'lumotga ham ega emas, qolgan 20 %i esa davlat ishlarida ishlaydigan yoki elektron raqamli imzodan xabari borlar edi. Oddiy aholining ko'pchiligi esa umuman ishlatmaydi va bilmaydi. Buning sababi esa ularda bu haqida ma'lumot yo'q, elektron raqamli imzo mavjudligi, undan foydalanishning ijobiy taraflari va

qulayliklarini bilishmaydi. Albatta elektron raqamli imzo har taraflama, har kim uchun qulay. O'tkazilgan so'rovlar asosida aniqlandiki,

1.maktab darsliklariga elektron imzo haqida mavzular kiritilishi, undan foydalanish tartiblari keltirilishi;

2.ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida elektron raqamli imzo haqida ma'lumotlar berilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.riigiteataja.ee/en/eli/530102013080/consolide> (Estoniyaning "Elektron imzo to'g'risida" gi qonuni).
2. O'zbekiston Respublikasi " Elektron raqamli imzo to'g'risida" gi qonuni, 12.10.2022 yildagi O'RQ-793-son.
3. "For e-residents". Estonian Tax and Customs Board. Retrieved 2025-02-05.
4. Crahay, Allegra (2016-04-05). "eID and e-Signature in cross-border situations, the Estonian experience (Estonian eID and e-Signature)". interoperable-europe.ec.europa.eu. Retrieved 2025-02-05.